

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**XALIMOVA FIRUZA RUSTAMOVNA**

**POETIK MATNNING KONSEPTUAL MAYDONI VA TARJIMADA  
QAYTA YARATILISHI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtotreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)**  
**Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)**

**Xalimova Firuza Rustamovna**

Poetik matnning konseptual maydoni va tarjimada qayta yaratilishi (ingliz va o‘zbek tillari misolida) ..... 3

**Халимова Фируза Рустамовна**

Концептуальное поле поэтического текста и воссоздание его в переводе (на примере английского и узбекского языков) ..... 33

**Halimova Firuza Rustamovna**

The conceptual field of a poetic text and its recreation in translation (on the examples of English and Uzbek languages)..... 65

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 70

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**XALIMOVA FIRUZA RUSTAMOVNA**

**POETIK MATNNING KONSEPTUAL MAYDONI VA TARJIMADA  
QAYTA YARATILISHI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida №B2021.1/DSc/Fil1297 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Safarov Shahriyor Safarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Bobokalonov Ramazon Rajabovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Ikromxonova Feruza Ikromovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Jumabayeva Jamila Sharipovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «06» iyul soat 09<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (465 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «24» iyun kuni tarqatildi.  
(2024-yil «24» iyun dagi 24-10 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S. O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I. Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
koti, filologiya fanlari doktori, professor

**F.M. Xajiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,  
dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida olamning milliy, lisoniy, badiiy manzarasi, turli millatlar madaniyati, urf-odati, an'analarining lisoniy ifodalanishini konseptual nuqtai nazardan asoslash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, badiiy matnning konseptual maydon doirasida o'rganilishi mazmun va tizimning majmuaviy faollashuvini muallif tafakkurining individual aksi sifatida tadqim etishga imkon beradi. Muallif ijodi namunasi bo'lgan badiiy asarlarni konseptual maydon sifatida o'rganishda uning individual qarashlari, milliy mentaliteti, tafakkuri, hissiyoti haqida tasavvur hosil qilish va olamning lisoniy manzarasi, madaniyat, milliy mentalitetni avloddan-avlodga yetkazish bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida badiiy matnni eng murakkab mental shakllanish tizimi hisoblangan konseptual maydon sifatida o'rganish pragmatika, kognitologiya, falsafa, psixologiya va lingvomadaniyatshunoslik sohasiga oid tadqiqotlarni yanada jadallashtirdi. Konseptlarda o'z ifodasini topgan lisoniy vositalarni tizimlashtirish va tavsiflashning samarali usullaridan biri, shuningdek, lisoniy shaxslar tafakkuri, semantik salohiyatini o'rganish ularning tarkib rejasida shakllanadigan maydon ko'rinishida aks ettirishdir. Zero, tilshunoslar bilimning lisoniy faollashuvi, uning inson ongida qanday andozaga egaligi, ya'ni shaxsga o'zi idrok etgan voqelikni tushunishga va uning g'oyasiga to'liq mos keladigan so'zni xotiradan topa olishi bilan qiziqishadi.

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarda madaniyatlararo muloqot vositasi rivoji hisoblangan til ta'limi va tadqiqi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev barkamol intellektual rivojlangan shaxsni shakllantirishning asosiy ma'naviy-axloqiy omili sifatidagi ahamiyatini nazarda tutib, "Bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat toboro keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovasiya yutuqlarini keng joriy etish bo'yicha biz uzluksiz ish olib borishimiz kerak"<sup>1</sup> deb ta'kidlaydi. Chunki, bunday masala, ayni vaqtda, yurt farovonligini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirish, yurtimizning yorqin kelajagini barpo etishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. O'zbek milliy qadriyatlarini, ma'naviyatini, madaniyatini o'zida mujassam etgan poetik matnning tadqiqi hamda uning tarjimasini amalga oshirish muammolarini o'rganish dolzarblashmoqda. Gumanitar ta'limning ustuvor vazifalari sirasiga o'zbek mualliflarining asarlarini boshqa tillarga uyg'un tarjima qilish qobiliyatiga ega, ilm-fan yutuqlaridan xabardor va yuqori malakaga ega yangi avlod tarjimonlarini tayyorlash kiradi.

Mazkur dissertasiya tadqiqoti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: "O'zbekiston", 2018. – B. 24.

ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda qator boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Konseptning badiiy matn doirasida voqelanishi, mental birliklar tipologiyasi hamda konseptual maydon faollashuvi masalalariga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Cambridge University (Buyuk Britaniya), Mannheim Institut für deutsche Sprache (Germaniya), Los Angeles Community College, University of Chicago, University of Kentucky (AQSh), Moskva davlat tilshunoslik universiteti, Perm davlat milliy tadqiqot universiteti, Chelyabinsk davlat universiteti, A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti, Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Volgograd davlat pedagogika universiteti, Tyumen davlat universiteti, Voronej davlat universiteti, Qozog'iston Milliy universiteti, shuningdek, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutida ushbu masalalar mohiyatini o'rganish borasida tadqiqotlar yaratilgan.

Jahon tilshunosligida badiiy konseptning lingvomadaniy va kognitiv jihatlari, shuningdek, tarjimada berilishi muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, badiiy matnning konseptual sohasini kognitiv modellashtirish, tasniflash masalalari (Los Angeles Community College, Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Voronej davlat universiteti, A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston

---

<sup>2</sup> Ma'lumotlar universitetlar veb-saytlaridan olingan: <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.ids-mannheim.de/>, <https://www.laccd.edu/>, <https://www.uchicago.edu/>, <https://www.uky.edu/>, <https://www.linguanet.ru/>, <https://pstu.ru/>, <https://www.csu.ru/>, <https://www.herzen.spb.ru/>, <https://bsuedu.ru/bsu/>, <https://vspu.ru/>, <http://www.utmn.ru/>, <https://www.vsu.ru/>, <https://www.kaznu.kz/ru/>, <https://nuu.uz/>, <https://tsuos.uz/>, <https://tsuull.uz/>, <https://buxdu.uz/>, <https://uzswlu.uz/>, <https://samdchi.uz/ru/>.

davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti), konseptning lingvomadaniy jihatlari (Volgograd davlat pedagogika universiteti), olamning konseptual manzarasini shakllantirishda frazeologik birliklarning roli hamda badiiy matnda metaforik konseptlarning berilishi masalalari (University of Kentucky, University of Chicago, Tyumen davlat universiteti, Voronej davlat universiteti), zamonaviy tilshunoslikda konseptual maydon tushunchasi (Perm davlat milliy tadqiqot universiteti, Moskva davlat tilshunoslik universiteti), konseptlarning tarjimada berilishi muammolari (Perm davlat milliy tadqiqot universiteti, Moskva davlat tilshunoslik universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti) bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy konseptning lingvomadaniy, kognitiv, psixolingvistik faollashuviga oid masalalar jahon tilshunosligida<sup>3</sup>, shuningdek mahalliy tadqiqotchilar tomonidan<sup>4</sup> birmuncha mufassal o‘rganilgan. Biroq, konseptning maydon sifatida voqelanishiga bo‘lgan e‘tibor sustroq. Konseptual maydon zamonaviy tilshunoslikning eng kam o‘rganilgan tadqiqot sohasidir<sup>5</sup>.

---

<sup>3</sup> Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия РАН. Сер. лит. и яз. 1993. №1. – С. 4-10; Попова З.Д., Стернин И. А. Понятие "концепт" в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – 30 с.; Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта: Теоретическое исследование. – Волгоград: Перемена, 2003. – 96 с.; Огнева Е.А. Когнитивное моделирование концептосферы художественного текста. 2-е изд. дополн. – М.: Эдитус, 2013. – 282 с.; Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1996. – 103 с.; Воркачев С.Г. Концепт как «зонтиковый термин» // Язык, сознание, коммуникация. Вып. 24. – М., 2003а. – С. 5-12; Зусман В.Г. Диалог и концепт в литературе. Литература и музыка. – Новгород, 2001. – 110 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: «Перемена», 2002б. – 477с.; Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование // Вестник ВГУ, Серия «Лингвистика и межкультурная коммуникация». – Волгоград: Изд-во ВГУ, 2004. № 1. – С. 29-34; Арутюнова Н.Д. Истина: фон и коннотации // Логический анализ языка: Культурные концепты. – М.: Наука, 1991. – С. 21-30; Тарасова И.А. Поэтический идиостиль в когнитивном аспекте (на материале поэзии Г. Иванова и И. Анненкова). Дисс... док. фил. наук. – Саратов, 2004. – 392 с.; Миллер Л.В. Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория // Мир русского слова. – 2000. № 4. – С. 39-45; Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: ТетраСистемс, 2008. – 272 с.; Маслова Ж.Н. Когнитивная концепция поэтической картины мира. – М.: Флинта, 2012. – 420 с.

<sup>4</sup> Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.; Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане // Хорижий филология. – Самарканд: СамГИИЯ, 2016. № 3. – С. 54-58.; Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive linguistics. – Т.: Vneshinvestprom, 2018. – 160 p.; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Т.: “Fan”, 2013. – 135 b.; Yusupov O‘.Q. Ma’no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2011. – В. 49; Эгамова М.Х. Когнитивная специфика репрезентации концептуальных представлений «долг/совесть» в художественном тексте и в процессе перевода. Дисс... д.ф.ф.н., PhD. – Самарканд, 2021. – 163 с.

<sup>5</sup> Адмони В.Г. Полевая природа частей речи (на материале языков различных типов) // Вопросы теории частей речи на материале языков различных типов. – Ленинград: Наука, 1968. – С. 98-106; Баженова Е.А., Шенкман В.И. Номинативное поле концепта «Школа» // Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2013. № 4 (24). – С. 91–97; Гулыга Е.В., Шендельс Е.И. Грамматико-лексические поля в современном немецком языке. – Москва: Просвещение, 1969. – 184 с.; Уфимцева А.А. Теории «семантического поля» и возможности их применения при изучении словарного состава языка // Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике. – Москва: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 30-68; Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2018. – 264 с.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Автореф. дисс... докт.фил.наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.

Badiiy tarjima muammosi bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan<sup>6</sup>. Biroq, o‘zbek tilshunosligida poetik matnning konseptual maydon sifatida tuzilishi, qiyosiy tahlili, shuningdek, uning tarjimada qayta yaratilishi muammolariga bag‘ishlangan ishlar deyarli mavjud emas.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Diskursning kognitiv, pragmatik va sosiolingvistik tadqiqi” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek va ingliz tili zamonaviy poetik matnlarida konseptual maydon lisoniy voqelanishining semantik-stilistik, kognitiv, madaniy jihatlarini ko‘rib chiqish, shuningdek, uning tarjima tilida qayta yaratilishini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

kognitiv tilshunoslikda konseptual maydon mohiyatini asoslovchi yondashuvlarni nazariy tadqiq qilish va ularga nisbatan munosabat bildirish;

konseptual maydonni voqelantiruvchi lisoniy vositalarning semantik-stilistik rolini aniqlash;

konseptual maydon doirasida muallif idiostilini voqelantiruvchi omillarni ajratish va ularning maqomini belgilash;

poetik matnning konseptual maydonini tashkil qiluvchi birliklarning o‘zaro munosabatlarini aniqlash usullarini ishlab chiqish;

poetik matn tarjimasiga konseptual yondashuv muammolari sabablarini farqlash va ularning yechimini topish bo‘yicha tavsiyalarni taklif qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida badiiy konseptning maydon tuzilishini ta’minlovchi assosiativ tamoyillar va kognitiv modellarni aniqlash maqsadida o‘zbek va ingliz tili poetik matnlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** konseptual maydonning o‘zbek va ingliz tili poetik matnida faollashuvi hamda tarjima tilida berilishining lingvomadaniy, kognitiv omillari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada lisoniy tahlilning umumiy va maxsus metodlaridan, xususan, tavsif, komponent tahlil usuli, kognitiv modellashtirish,

---

<sup>6</sup> Комиссаров В.Н. Когнитивные аспекты перевода // Перевод и лингвистика текста. – М., 2004. – С. 20-31; Швейцер А.Д. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1988. – 315 с.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.; Бреева Л.В., Бутенко А.А. Лексико-стилистические трансформации при переводе. – М.: 1999. – 240 с.; Воскобойник Г.Д. Когнитивный диссонанс как проблема теории и практики перевода: Основные концептуальные положения. – Иркутск: Изд-во Иркут. ун-та, 2002. – 31 с.; Гачечиладзе Г.Р. Стихосложение и поэтический перевод / Поэтика перевода: Сборник. – М.: Радуга, 1988. – С 88-93; Гончаренко С.Ф. Поэтический перевод и перевод поэзии: константы и вариативность. – М., 1999. – 374 с.; Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – T., 1983. – 69 b.; Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – T., 1983. – 163 b.; Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.; Джусупов Н.М. Когнитивно-стилистические основы выдвижения в англоязычном художественном тексте. Дисс... док. фил. наук. – Ташкент, 2020. – 330 с.; Вакаева М.К. Angliya, AQSh adabiyotidan o‘zbek tiliga she‘riy tarjima va qiyosiy she‘rshunoslik muammolari. F.f.d. ...dis. –T., 2004. – 317 b.; Галеева Н.Л. Параметры художественного текста и перевод. – Тверь, 1999. – 154 с.; Габровский Н.К. Теория перевода. – М.: МГУ, 2004. – 544 с.; Огнева Е.А. Художественный перевод: проблемы передачи компонентов переводческого кода. Монография. 2-е изд, доп. – Москва: Эдитус, 2012. – 234 с.; Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. – T., 1972. – B. 134-136; Arustamyan Ya.Yu. Badiiy tarjimaning kognitiv-pragmatik asoslari. Filol. fan . dokt. (DSc)... diss. avtoreferati. – T., 2022. – 79 b.

konseptual tahlil va freym tahlili usullari, shuningdek, qiyosiy-chog'ishtirma tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

konseptual maydon konseptning dolzarb mazmunini taqdim etish, shuningdek, leksikografik, psixolingvistik, kommunikativ, qiymat-mazmunli va konnotativ ma'nolarni yetkazish imkonini beruvchi mikromaydonlardan iboratligi hamda ularning kesishish nuqtalari aniqlangan;

badiiy konsept muallif tafakkurida uning hayotiy tajribalari, ko'nikmalari va hissiyotlari asosida shakllanishi, u badiiy kontekstga joylashtirilib, o'quvchi tomonidan qabul qilinishi asosida diskursiv vazifani bajarishi hamda bunday o'zaro ta'sir natijasida o'quvchining ushbu konsept idrokida yangi assosiasiyalar hosil bo'lishi isbotlangan;

badiiy konsept muallif badiiy matni konseptosferasining tarkibiy qismi bo'lib, muallif tomonidan yaratilgan asarning syujetini yaratishda kognitiv-pragmatik ahamiyatga ega bo'lgan va jamoa ongida aks etgan mental belgi va hodisa ekanligi asoslangan;

poetik konseptlar insonning kognitiv, hissiy va estetik jihatdan mazmunli tajribasi natijasi bo'lgan tizimni tashkil etishi, ikkilamchi tabiati tufayli she'riy matnning turli darajalarida ifodalanishi hamda lisoniy ifodaning turli qatlamlari bilan o'zaro bog'liq tuzilishga ega ekanligi ochib berilgan;

poetik matnlar tarjimai jarayonida uchraydigan muammolar shartli ravishda ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhi poetik tafakkurning milliy va individual (muallifga xos) xususiyatlari bilan bog'liqligi, ikkinchi guruhdagilari esa, til tizimi va har bir xalqning an'alariga asoslangan she'riy shakllar ta'sirida yuzaga kelishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

lingvomadaniy aloqalar hamda kognitiv-diskursiv munosabatlar tahlili metodikasining badiiy matnning filologik tahlili doirasida qo'llanilishi istiqboli belgilangan;

konseptual maydon tahlilining ishlab chiqilgan usuli tabiatan universaldir va ma'lum xalqning yoki muallifning individual konseptual maydonlariga kiritilgan boshqa badiiy konseptlarni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin;

tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarining o'zbek va ingliz filologiyasi, tarjimashunoslik yo'nalishlari talabalari uchun uslubiy va tahliliy material sifatida foydalanish tavsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari asosida olingan xulosalarning tahlil metodologiyasi va uslubiga muvofiqligi bilan, o'rganilayotgan muammoning dolzarbligini, yangi va muhim vazifalarning hal etilishi, keng qamrovli materialni tahlil qilish asosida olingan ilmiy xulosalarning nazariy asoslangani, muammoning tavsifiy, komponent, kognitiv modellashtirish, konseptual va freym tahlili, shuningdek, kontekstual tahlil usullar asosida aniqlab berilgani, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilgani va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o‘zbek va ingliz tili poetik matn materiallari asosida konseptual maydon faollashuvini semantik, stilistik, madaniy, kognitiv jihatdan tadqiq qilish lisoniy hodisalar tabiatini yanada kengroq va chuqurroq ochib berishga imkon beradi, bu erishilgan natijalarning samaradorligi va istiqbolidan dalolat beradi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslik nazariy yondashuvlarining amaliy ahamiyatini rivojlantiradi va tarjima muammolarini o‘rganish va hal qilishning yangi usullarini ochib berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonida “Kognitiv tilshunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Badiiy matnning konseptual tahlili”, “Badiiy matn tarjimasi va tahlili” fanlari bo‘yicha ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida tadqiqot materiallaridan foydalanish imkoniyatida, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratishda, shuningdek, kognitiv tilshunoslik muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda namoyon bo‘lishi, shuningdek, bildirilgan tavsiyalar badiiy tarjima bilan shug‘ullanuvchi tarjimonlar uchun amaliy qo‘llanma xizmatini o‘tashi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Poetik matn konseptual maydoning kognitiv, semantik-stilistik, diskursiv xususiyatlari va ularning ingliz va o‘zbek tillarida chog‘ishtirma tadqiqi jarayonida olingan nazariy va amaliy natijalari asosida:

konseptual maydon konseptning dolzarb mazmunini taqdim etish, shuningdek, leksikografik, psixolingvistik, kommunikativ, qiymat-mazmunli va konnotativ ma’nolarni taqdim etish imkonini beruvchi mikromaydonlardan iboratligi hamda ularning kesishish nuqtalari bilan bog‘liq natijalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” loyihasi doirasida foydalanildi (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 16-fevraldagi №62/1-son ma’lumotnomasi). Natijada, she’riyat olamining konseptual maydoni tadqiqi asosida qoraqalpoq adabiyotshunosligi tarixini o‘rganishda foydalanilgan;

badiiy konsept muallif badiiy matn konseptosferasining tarkibiy qismi bo‘lib, muallif tomonidan yaratilgan asarning syujetini yaratishda kognitiv-pragmatik ahamiyatga ega bo‘lgan va jamoa ongida aks etgan mental belgi va hodisa ekanligiga oid olingan natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida I-204-4-5 raqamli “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” mavzusidagi innovasion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 23-fevraldagi №379/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek tilidan ingliz tiliga, va aksincha, ingliz tilidan o‘zbek tiliga bilvosita va bevosita qilingan poetik tarjimalar tahlilida ularning mazmunini hamda asliyat va tarjima tili o‘rtasidagi konseptual muqobillik darajasini aniqlash usullari “Yozma tarjima”, “Badiiy asar tarjimasi tahlili”, “Badiiy tarjima stilistikasi”,

“Lingvomadaniyatshunoslik”, “Qiyosiy tadqiqotlar metodologiyasi” kabi fanlarning nazariy asosini boyitishda inobatga olingan;

dissertasiyaning badiiy konsept muallif tafakkurida uning hayotiy tajribalari, ko‘nikmalari va hissiyotlari asosida shakllanishi, u badiiy kontekstga joylashtirilib, o‘quvchi tomonidan qabul qilinishi asosida diskursiv vazifani bajarishi hamda bunday o‘zaro ta’sir natijasida o‘quvchining ushbu konsept idrokida yangi assosiasiyalar hosil bo‘lishi bilan bog‘liq xulosa va natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 23-fevraldagi №377/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida shakllantirilgan modullar kontenti olamning lisoniy manzarasining poetik matn doirasida shakllanishi, bilim ifodasi va kognitiv tuzilishiga oid ma’lumotlar bilan to‘ldirildi. Mazkur tahlillar orqali talabalarning kognitiv tafakkur etishi, mulohaza yuritish qobiliyatlari rivojlanishi aniqlandi;

dissertasiyada keltirilgan poetik matnlar tarjimasi jarayonida uchraydigan muammolarni shartli ravishda, ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhi poetik tafakkurning milliy va individual (muallifga xos) xususiyatlari bilan bog‘liqligi, ikkinchi guruhdagilari esa, til tizimi va har bir xalqning an’analariga asoslangan she’riy shakllar ta’sirida yuzaga kelishi bilan bog‘liq xulosa va natijalari va materiallaridan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetida Erasmus+ dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining 2023-yil 15-maydagi №04/11-2906-son ma’lumotnomasi). Natijada, konseptual maydon doirasida muallif idiostilini voqelantiruvchi omillarning o‘rni xususidagi xulosalardan badiiy matnlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimama qilishda, magistratura talabalari uchun tashkil etilgan onlayn kurslarda ishlatilgan;

poetik konseptlar insonning kognitiv, hissiy va estetik jihatdan mazmunli tajribasi natijasi bo‘lgan tizimni tashkil etishi, ikkilamchi tabiati tufayli she’riy matnning turli darajalarida ifodalanishi hamda lisoniy ifodaning turli darajalari bilan o‘zaro bog‘liq tuzilishga egaligi bilan bog‘liq natijalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida bajarilgan 598661-EPP-1-2018-1- RO-EPPKA2 - CBHE-JP DECIDE: “Imkoniyati cheklanganlar uchun xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2023-yil 17-apreldagi №01-21-04-3/841-son ma’lumotnomasi). Natijada, kognitiv tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlarni o‘qitishda hamda mazkur amaliy loyiha bo‘yicha elektron resurslar, bosma darslik uchun manbalar va nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlashda manba bo‘lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola, jumladan, 11 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 216 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning sharhi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot usullari, dissertasiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning "**Konseptual maydonning tizim sifatida tashkil topishi**" deb nomlangan birinchi bobida kognitiv tilshunoslikda konseptual maydon talqini, matn konseptual maydonida badiiy konseptlarning semantik-pragmatik roli, shuningdek, poetik idiostilning kognitiv-diskursiv belgilari ko'rib chiqilgan.

"Maydon" atamasi "mazmuni bilan birlashtirilgan va belgilangan hodisalarning konseptual, obyektiv yoki funksional o'xshashligini aks ettiruvchi lisoniy birliklar to'plami"<sup>7</sup> deb yoki "umumiy (o'zgarmas) xususiyatlarga ega lisoniy elementlarning mavjudligi va guruhlanishi usuli" sifatida ta'riflanadi<sup>8</sup>.

Konseptual maydon konseptning kommunikativ-tegishli qismining murakkab faollashtirilgan mazmuni va tuzilishini ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar tafakkurining aksi sifatida taqdim etishga imkon beradigan bir nechta tarkibiy qismlarni birlashtirgan murakkab mental shakllanish sifatida qaraladi.

"Badiiy konsept" tushunchasining markazi "umumiy asos", "yadro" deb ataladi. Uning atrofidagi hudud va sarhadlar birgalikda konseptual maydonni hosil qiladi. Unda ma'lum millatning ruhi, bilimi, qarashlari aks topadi. Zero, ushbu konseptual maydonni yaratgan shaxs, ya'ni muallif ma'lum millat vakilidir. Yoki aksincha, muallif yadro atrofidagi sarhad va hududlarni o'zining semantik tizimidan kelib chiqqan holda o'zgacha lisoniy vositalar, uslublar va boshqa birliklar yordamida to'ldirib, individual konseptual maydonni hosil qilishi mumkin. Bu usul shoirlar ijodida, ya'ni poetik matnda kuzatiladi.

Badiiy konsept individual-muallifning olam manzarasi tasavvuri aksi bo'lib, lisoniy shaxs milliy ma'naviy qadriyatlarni va o'z tasavvuridagi olam manzarasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan qadriyatlarni tanlab aks ettirishi mumkin. Biroq,

<sup>7</sup> Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. – Москва: Эдиториал УРСС, 2000. – С. 99.

<sup>8</sup> Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2018. – С. 73.

muallif ongida shakllanib, lisoniy belgida o'z ifodasini topgan badiiy konsept, turlicha ifodalanish imkoniyatiga ega. Badiiy asarda so'zning tom ma'nodagi mazmuni butunlay boshqacha, yangi mazmunlarga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, badiiy konseptning paydo bo'lishi uchun xizmat qiladi. Aynan badiiy konseptlarda lisoniy va madaniy konseptlar doirasiga kiritilmagan xususiyatlarni faollashtirish mumkin.

Turli birliklar vositasida moddiylashtirilgan matnning semantik maydoni muallif va o'quvchi tafakkurini o'z ichiga oladi, ular matn hosil bo'ladigan, harakatlanadigan hamda semantik birlik va konseptual yaxlitlik sifatida mavjud bo'lgan qirralarni ifodalaydi. Murakkab semantik tuzilish badiiy matnning ajralmas xususiyatidir.

Poetik matnda muallif idiositilini namoyon qilishda stilistik vositalarning o'rni beqiyos. D.U. Ashurova va M.R. Galiyevaning qayd etishicha, matnni stilistik jihatdan tadqiq etish bir qator muammolarni hal etishi mumkin. Jumladan, matnning funksional-stilistik va kompozision tuzilishi, uslubiy kategoriyalari, bog'liqlik va mantiqiylik uslubiy vositalari, individual uslubning stilistik xususiyatlari, lisoniy birliklarning konseptual axborot ifodalashidagi roli hamda olamning konseptual manzarasini talqin etish kabilar<sup>9</sup>.

Stilistik vositalarni bilimni ifodalashning maxsus tuzilishi sifatida kognitiv tarzda ko'rib chiqish, uning murakkab mazmuni va faoliyatining bir qator jihatlarini aniqlashga yordam beradi: birinchi navbatda, kognitiv jarayonlarning xususiyatlari va ularni shakllantirishning turli mexanizmlari, uslubiy aloqador ma'lumotlarni talqin qilishning asosiy tamoyillari va modellari, stilistik ta'sirni yaratish, shuningdek, bilimlarning lisoniy va nolisoniy tuzilmalarining o'zaro bog'liqligi<sup>10</sup>.

Matnni tushunishga uning elementlarining zohiriy va botiniy aloqalarining birligi sifatida lingvopsixologik tahlilni amalga oshirish ko'maklashadi. Badiiy matnni tahlil qilishda kognitiv yondashuvning asosi sifatida quyidagi omillar aniqlangan:

- 1) ontologik xususiyatlar: matnning kommunikativ tabiati va uning tuzilishi;
- 2) badiiy voqelikning g'oyaviy va gnoseologik tabiati;
- 3) badiiy so'zning o'ziga xosligi: badiiy asarlar tili, milliy tilning barcha ijodiy salohiyatini qamrab olgan, maksimal darajada namoyon bo'lishi;
- 4) alohida muallifning olam manzarasi shaklida mujassamlangan bilimlarini ifodalovchi murakkab semantik belgi sifatida namoyon bo'ladigan badiiy matn antroposentriзмining yuqori darajasi<sup>11</sup>.

Poetik diskursda dastlab voqelikni hissiy idrok etish darajasini belgilovchi axborot ifodalanadi. So'nggi o'rinda nutqni yaratish bilan bog'liq bilimlarni ikkilamchi tasniflash jarayonida mavhum-mantiqiy fikrlash bosqichi turadi. Birinchi bosqichda olamning birlamchi bo'linishi sodir bo'ladi, voqelikning bir qismi atrof-

<sup>9</sup> Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive linguistics. – T.: Vneshinvestprom, 2018. – P. 19.

<sup>10</sup> Джусупов Н.М. Когнитивно-стилистические основы выдвижения в англоязычном художественном тексте. Дисс... док. фил. наук. – Ташкент, 2020. – С. 28.

<sup>11</sup> Бабенко Л.Г., Казарин Ю.В. Лингвистический анализ художественного текста. Теория и практика: Учебник; Практикум. – М.: Флинта: Наука, 2006. – С. 39-42.

muhitdan ajratiladi. Ikkinchi bosqichda ikkilamchi bo‘linish sodir bo‘ladi: birlamchi tanlangan qism ustiga tasnif panjarasi qo‘yiladi, tanlangan bo‘laklarni turkumlash ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rnatish asosida amalga oshiriladi. Ular o‘rtasidagi farq qanchalik katta bo‘lsa, tafakkur bosimi ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Poetik diskursdagi semantik ma’lumot modeli quyidagi majburiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1) konseptual komponent – muallifning olam modeli, uning kognitiv tuzilmalari, konseptual maydoni haqidagi ma’lumot;

2) muallifning estetik ideali nuqtai nazaridan real dunyoni obrazli shaklda aks ettiruvchi badiiy axborotning xususiyatlari haqida estetik ma’lumotlar;

3) shoirning hissiy holati, she’r yaratishda uning his-tuyg‘ulari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hissiy komponent.

She’riy matnda estetik ma’lumot ko‘pincha nafaqat faktual, balki konseptual ma’lumotdan ustunlik qiladi. Estetik ma’lumotni uzatish she’riy matnning asosiy vazifasidir. Dalillarni uzatishga qaratilgan faktual, semantik ma’lumotlardan farqli o‘laroq, estetik ma’lumotlar baholash, munosabatlar tajribasini uzatishga qaratilgan. Quyidagi she’riy matnni tahlil qilib ko‘ramiz:

*Sevgini tortib bo‘lurmu  
Tosh-u tarozu bilan?  
Mehrni o‘lchab bo‘lurmu  
Zar bilan, inju bilan?  
Ayt, qachon ko‘nglimga solding  
Ishq o‘tin, ey sohira?  
Dil o‘zi bog‘landimu, yo  
Bog‘lading jodu bilan?  
Men senga ko‘nglimni ochdim,  
Ha deb ayt, yo yo‘q deb ayt,  
Buncha qiynaysan dilimni,  
O‘rtanma kulgu bilan.  
Nega senga tik qarolmam,  
Ko‘zlaring oftobmi, yo  
Oftob aksin ko‘zga solding  
O‘ynashib ko‘zgu bilan?  
Vasl umidin tark etolmay  
Intilar ko‘nglim senga,  
Umrini oshiq hamisha  
O‘tkazur orzu bilan.*

Erkin Vohidov qalamiga mansub “Sevgini tortib bo‘lurmu...” she’rida shoir o‘z sevgisini, kommunikativ maqsadini o‘ziga xos individual uslubiy tarzda bayon etmoqda. Birinchi baytda muallif ritorik savol orqali o‘quvchining diqqatini tortmoqda. Sevgini tarozi bilan, mehrni zar, inju bilan o‘lchab bo‘lmasligi

muallifning o‘ziga ham ayon, shu tarzda u o‘quvchi bilan muloqotga kirishmoqda. Shoirning maqsadi sevgining o‘lchami, vaznu, chegarasi yo‘qligini isbotlash.

Ikkinchi baytda shoir sevgilisiga, ikkinchi shaxsga yana ritorik savol orqali murojaat etmoqda. Shoir qachon va qay tarzda sevib qolganini sevgilisidan so‘ramoqda. Maqsad bu savollarga javob olish emas, chunki ularga javob berib ham bo‘lmaydi, shoir shunchaki qizni sevib qolganini ta’kidlamoqda. Shu o‘rinda “shoir-o‘quvchi-qiz”, ya’ni adresant va ikkita adresat munosabati hosil bo‘lmoqda.

Mazkur poetik diskurs, diskursning boshqa turiga nisbatan o‘ziga xos vazifaga ega, ya’ni qabul qiluvchiga psixofiziologik ta’sir o‘tkazmoqda. Ushbu vazifa ikki darajada amalga oshirilmoqda: qabul qiluvchining hissiy idrokiga haqiqiy ta’sir darajasi va matnga kiritilgan ramziy ma’lumotlarning intellektual dekodlanishi darajasi (lisoniy “o‘yin” xususiyatini amalga oshirish).

Uchinchi baytda shoirning maqsadi aniq, sevgilisidan javobni so‘ramoqda. Muallif sevgilisi obrazini *sehrgar (sohira)*, *jodugar (bog‘lading jodu bilan)*, *qiynog‘i (buncha qiynaysan dilimni)*, *ko‘zlari yorqin (ko‘zlaring oftobmu, oftob aksin ko‘zga solding)* kabi troplar yordamida tasvirlagan. Aslida yorga nisbatan ushbu salbiy mazmundagi so‘zlar she’rning hissiy ta’sir kuchini oshirish maqsadida ishlatilgan bo‘lib, ular boshqa semantik qurilmalar bilan birga ishlatilgan holda ijobiy hissiyotni uyg‘otmoqda.

Mazkur she’rda aks etgan faktual ma’lumotlar: sevgi, mehr o‘lchanmaydi, shoir muhabbati javobsiz, ko‘ngli yorga intiladi, sevgisi abadiy;

estetik ma’lumot: shoir sevgilisi sohira (sehrli qiz), shoir qalbi yo o‘zi bog‘langan yoki jodu bilan, qiz kulib sevgisiga javob bermaydi, shoir qizning ko‘zlariga tik boqa olmaydi;

semantik yoki emotiv ma’lumot: shoir qalbiga ishq o‘ti solingan, dil bog‘langan.

Dissertasiyaning **“Olamning poetik manzarasi va badiiy konsept tipologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida badiiy konseptning matn doirasida shakllanishi, badiiy konseptlar turlari va tipologiyasi, bilim ifodasi tuzilishi yoki kognitiv strukturasi, shuningdek, olam poetik manzarasining konseptual tahlil usullari ko‘rib chiqilgan.

Badiiy matnning konseptosferasini o‘rganish asardagi konseptlarning ifodalanish ko‘lamini belgilash va ularning lisoniy hodisalar bilan bog‘liqlik turlarini aniqlash imkonini beradi.

Badiiy konseptning assosiativ-semantik maydonlaridagi individual assosiasiyalar uning predmetli, tushunchali-konseptual, emosional, aksiologik tarkibini o‘zgartiradi, majoziy qatlamning ahamiyatini bir necha bor oshiradi. Shuning uchun badiiy matn doirasidagi badiiy konseptlarning ifoda vositalari va tuzilishi jihatidan estetik rolini aniqlash jarayonida uni asliyat darajasini (shaxsiy tarkibini) ham inobatga olish lozim, chunonchi, aynan ushbu omil badiiy konsept xususiyatini belgilaydi. Avvalo, turli mualliflarning badiiy matnlarda bir xil mazmun, tarkib, hattoki obrazni ifoda etuvchi umumbadiiy konseptni ajratish lozim.

Badiiy konseptning ikkinchi turi – individual-muallifiy konsept – axborot yaxlitligi, mazmuni va nutqda namoyon bo‘lishi faqat bitta muallif ijodiga oid bo‘ladi.

Masalan, o‘zbek she‘riyatida “Vatan” konseptual maydoni “Ona Zamin”, “Ona”, “musaffo osmon”, “makon”, “yurt”, “tuproq”, “O‘zbekiston”, “ozodlik” kabi umumbadiiy konseptlardan tashkil topgan bo‘ladi. Shoir Muhammad Yusuf she‘riyatini tahlil qilganimizda, “Vatan” konsepti - “sajdagoh”, “ona suti”, “tuproq‘i ko‘zga to‘tiyo” kabi individual-muallifiy konsept mazmunlarida o‘ziga xos tarzda aks etilishining guvohi bo‘lamiz. Qiyoslang:

*Kimga dasht boshpana, kimgadur gulzor,  
Har kimning sig‘ingan sajdagohi bor.  
Har hovuch tuprog‘i ko‘zga to‘tiyo,  
Biz uchun qadrdon shu aziz diyor.*

(Muhammad Yusuf “Vatan madhi”)

*Sensiz sahrolarda sarobdir yo‘lim,  
Tuproq‘i ko‘zimga to‘tiyo elim.*

(Muhammad Yusuf “To‘ning etagidan tushmasin qo‘lim”)

*Ammo rosti labda boldek qotib qolgan shu –  
Onam suti, onam suti ekan-da Vatan!*

(Muhammad Yusuf “Sizga aytsam”)

*Tuproq yurtim mening,  
To‘pori yurtim.*

*Ko‘zimga to‘tiyo g‘ubori yurtim*

(Muhammad Yusuf “Yurtim”)

Ingliz she‘riyatida “Vatan” konsepti “God’s country”, “birthplace”, “country of origin”, “fatherland”, “home”, “homeland”, “mother country”, “motherland”, “native soil”, “old country”, “old world”, “terra firma” kabi milliy-badiiy konseptlardan hosil bo‘ladi<sup>12</sup>.

*I lastly was with Curtis, among the floating batt’ries,  
And there I left for witness, an arm and a limb;  
Yet let my Country need me, with Elliot to head me,  
I’d clatter on my stumps at the sound of drum.*

(Robert Burns “Soldier’s Joy”)

Ushbu she‘rda muallif “Vatan” konseptini denotativ mazmunidagi milliy-badiiy leksik vosita orqali bermoqda. Biroq, aynan shu muallifning boshqa bir she‘rida uning individual tarzda “Vatan” konseptini hosil qilishiga guvoh bo‘lamiz:

*My heart's in the Highlands, my heart is not here,  
My heart's in the Highlands, a-chasing the deer;  
Chasing the wild-deer, and following the roe,  
My heart's in the Highlands, wherever I go.*

(Robert Burns “My heart's in the Highlands”)

Shoirning “Vatani” tog‘lar, u ohu ketidan chopar, kiyikni quvlar... Mazkur she‘rda o‘ziga xos Vatanga muhabbat ifodasi aks etgan.

---

<sup>12</sup> Cambridge Dictionaries. Online. URL: <http://dictionary.cambridge.org/ru>

Badiiy matn, M. Yoʻldoshev taʼkidlaganidek, insonni ruhan toʻlqinlantirish, yigʻlatish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, oʻyga choʻmdirish, estetik tafakkurni shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga oʻrgatish kabi koʻplab imkoniyatlarni oʻzida mujassam qilgan boʻladi<sup>13</sup>. Ushbu xususiyatlar taʼsiri ostida badiiy konsept paydo boʻladi.

Har qanday madaniy ifoda (kulturema) – bu oʻziga xos konseptdir, biroq har bir oʻziga xos konsept – madaniy ifoda boʻla olmaydi. Madaniy ifoda, deganda maʼlum bir xalqning madaniy zahirasi belgilari majmuini tashqil etuvchi<sup>14</sup> va voqelik-obyekt (belgili) va voqelik-soʻz (bildiruvchi) ning oʻzaro taʼsirini aks ettiruvchi olamning lisoniy manzarasining oʻziga xos belgilari guruhi tushuniladi. Madaniy ifoda orqali biz uch tarkibiy qism: mazmun, formal ifoda va voqelik-predmetning umumiyligini tushunamiz.

Madaniy konseptning yuqoridagi barcha xususiyatlari har qanday badiiy konseptda mavjud boʻlishi mumkin.

Lingvomadaniy badiiy konseptlarni tematik jihatdan lingvokognitiv konseptlar bilan bir xil umumiylikda tasniflash mumkin: emosional (hissiy), ekspressiv, matnli.

Badiiy nutqda ifodalanishi tamoyiliga koʻra badiiy konseptlar individual, mikroguruhli, makroguruhli, milliy, sivilizasion, umumbashariy turlariga ajratiladi<sup>15</sup>.

Lingvomadaniy badiiy konsept lingvomadaniyat (til va madaniyat oʻrtasidagi munosabatni oʻrganuvchi fan)da ishlatiladigan boshqa birliklardan oʻzining mental tabiati bilan firqlanadi. Zotan, til va madaniyatning oʻzaro taʼsiri aynan tafakkurda aks topadi, chunki u til va madaniyatning oʻzaro taʼsiri ongida, shuning uchun har qanday lingvomadaniy tadqiqotlar ham bir paytning oʻzida kognitiv tadqiqot sanaladi.

Konsept tasvir (obraz) – bu umumlashtirilgan vizual tasvirlarni faollashtirish orqali uzatiladigan kognitiv tuzilmadir. Konsept shakllanishining boshlangʻich nuqtasi voqelik boʻlagi (predmet) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl boʻlib qolmasdan, balki mazmunli hodisadir<sup>16</sup>.

Sheʼriyatda obraz – bu oʻquvchilarning his-tuygʻulari va tasavvuriga murojaat qiladigan yorqin va jonli tavsif shaklidir. “Obrazlilik” faqat vizual tasvirlarni yoki mental obrazlarni aks etmaydi – u hissiy tajribalarning butun maydonini, shu jumladan, ichki his-tuygʻularni va jismoniy hislarni anglatadi. Obraz oʻquvchiga nima boʻlayotganini aniq koʻrish, teginish, tatib koʻrish, hidlash va eshitish imkoniyatini beradi va baʼzi hollarda hatto shoir yoki uning mavzusiga hamdard boʻladi.

Tushuncha hissiy bilish shakllaridan farq qilib, inson miyasida toʻgʻridan-toʻgʻri aks etmaydi. U taqqoslash, analiz, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi. Har qanday tushuncha —

---

<sup>13</sup> Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008. – B. 99.

<sup>14</sup> Воробьев, В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). – М.: РУНД, 1997. – С. 44.

<sup>15</sup> Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты. – Волгоград: Перемена, 1996. – С. 3–16-321.

<sup>16</sup> Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 21.

mavhumlikdan iboratdir, bu holda tushuncha voqelikdan uzoklashgandek tuyulsada, haqiqatda esa tushuncha yordamida voqelikning muhim tomonlarini ajratib, tadqiq qilish yo‘li bilan chuqurroq bilib olinadi.


Freym va konseptual maydonni turli xil kognitiv tuzilmalar sifatida taqqoslaganda, uyushmalarning turkumligi/individualligi, ularning oqilona/emosional tabiati freymli va maydon shakllanishi belgisi sifatida aniqlanadi. Semantik maydon va freym o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lib, ular tuzilmaning lisoniy tizimda yoki undan tashqarida joylashuvi bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, freym yuqori darajadagi kognitiv tuzilma, ko‘p komponentli konseptdir. Har qanday bilim birligini ifodalovchi umumiy “konsept” atamasidan farqli ravishda, tizimlashmagan “freym” umumiy atamasi faqat tizimli konseptlar: sxemalar, senariylar, kognitiv modellarga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Masalan, “Ayol” konseptining freym tuzilishi piramida shaklida ifodalanishi mumkin, uning yuqori qismi “Ayol” freymidir va quyida subfreymlar mavjud bo‘lib, ular o‘z navbatida o‘zgaruvchan komponentlar bilan to‘ldirilgan slotlar va terminallarga bo‘linadi.

Masalan, shoir Jamol Kamol qalamiga mansub “Iltijo” deb nomlangan she‘rining freymini tahlilga tortamiz.

*Ey Xudo, men ham qulingman, o‘zgin kam etmagil,  
Bu jahon qayg‘usini jonim aro jam etmagil.  
San‘atingga yo‘q taraf, sohib hunarsen, ey Xudo,  
Aslini hayvon yasab, suvratda odam etmagil.  
Bor jahonning zalvarin, yelkamga qo‘ysang, qo‘y, vale,  
Nafsi shayton zanjirin bo‘ynima mahkam etmagil.  
Kecha berding munchakim, ber endi kunduz, Xoliqo,  
Kulguni bir dam berib, g‘amni damodam etmagil.  
Biruborim bermasang jannatsaroilar, mayliga,  
Ko‘zlarimga bori dunyoni jahannam etmagil.  
Sen yaratding shu jahonda mardni ham, nomardni ham,  
Mardni ma‘yus aylabon, nomardni hurram etmagil.  
Ro‘baro‘ etma munofiqni menga, Parvardigor,  
Senga hamdan bo‘lmaganni menga hamdam etmagil.  
Ey Xudoyim, solmasang ko‘ngilga ishqdin inqilob,  
Nozaninlar nozini jonimga malham etmagil.*

Mazkur she‘rning freym-konsepti – ILTIJO. Iltijo Xudoga yoki biron bir shaxsga himoya, panoh so‘rash maqsadida yalinish, yolvorish, o‘tinib so‘rash, kuchli iltimos qilishni bildiradi. Iltijo qilayotgan shaxs biron bir holatni o‘zgartirilishini xohlaydi, u biron kimsadan yoki holatdan norozi bo‘lishi mumkin, yoki biron-bir kamchiligi to‘ldirilishini so‘raydi. Ushbu she‘rda shoir Ollohga murojaat etib, uni turli xil yomonliklardan, salbiy oqibatlardan himoya qilishini, ya‘ni panoh so‘ramoqda. Uning freym tuzilishini quyidagi chizma orqali ko‘rsatib berish mumkin (1-rasm).



### 1-rasm. “Iltijo” freym-konsepti maydoni

J. Fillmor qayd etishicha, voqea ssenariysining strukturasi semantik rollardan iborat. U agent – harakat subyekti, resipiyent – harakatni qabul qiluvchi, instrument – vosita, harakat quroli, obyekt – harakat obyekti, sabab, maqsad, makon va zamon kabi 8 turdagi semantik rollarni farqlashni taklif etadi<sup>17</sup>.

Poetik matnda bir sahnadan iborat ssenariy turi ham boʻladi.

*Afsus oʻtib ketdi, umr muvaqqat,  
Dunyoda bir oʻzing qolding sen faqat.  
Demishlar yolgʻizning yori Xudodir,  
Doʻstdan muhabbat kut, dushmandan shafqat.*

(A. Oripov “Yolgʻizlik”)

Mazkur poetik matnda bir voqelik tasvirlangan, yaʼni “Yolgʻiz qolgan inson” holati. Unda zamon va makon holati bir holatda tasvirlangan, demak sheʼr bir sahnadan iborat.

*Kecha xitoy eding, bugun-chi yapon,  
Ertaga hindusan va yoki seylon,  
Kaftgirni qoʻlga ol, qani, osh pishir,  
Bir kun oʻzbek boʻlib turgaysan oʻgʻlon.*

(A. Oripov “Sayyohlar”)

Ushbu sheʼrda esa aksincha, besh makon tasviri (xitoy, yapon, hindu, seylon va oʻzbek) va toʻrt zamon (kecha, bugun, ertaga, bir kun) ifodalangan. Oʻquvchi tasavvurida ham voqelik ketma-ket zamon va makonda almashib boradi. Demak, quyidagi sahnalar hosil boʻladi: 1) sayyoh xitoy obrazida; 2) sayyoh yapon obrazida; 3) sayyoh hindu obrazida; 4) sayyoh seylon obrazida; 5) sayyoh oʻzbek obrazida qoʻlida kaftgir bilan qozon oldida palov pishirmoqda. Birinchi, ikkinchi, uchinchi va toʻrtinchi sahnalarda harakat yoʻq, faqat zamon, makon va obraz oʻzgarmoqda.

<sup>17</sup> Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 37.

Geshtalt – bu hissiy va kundalik komponentlarni butun va yaxlit holda o‘ziga jamlab olgan konseptual tuzilma, yaxlit obrazdir. Inson obyekt haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganida konseptual turlarni, ya’ni aniq obraz, umumiy sxema, sahna va barcha tarkibiy qismlarning umumiy tuzilishini (freym) anglab olganida, geshtalt bilishning eng yuqori darajasi (ma’lum bilimlar tizimi, ongli bilimlar) sifatida tushunilishi mumkin<sup>18</sup>.

Geshtalt freymdan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) geshtalt – bu bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topgan, ammo shu bilan birga oddiy qismlar yig‘indisidan ko‘proq narsani ifodalovchi butunlik; undagi rasional komponentlar hissiy-modal tarkib bilan birlashtiriladi;

2) geshtalt – nafaqat yaxlitlik belgisini, balki baholash, uning belgilarini ham o‘z ichiga olgan kategoriyadir;

3) geshtalt ifodalangan hodisa yoki obyektning statik va dinamik jihatlarini birlashtiradi.

Misol uchun “Muhabbat” tushunchasining she’riy matn doirasida geshtalt tahlilini ko‘rib chiqamiz. Qomusiy lug‘atlarda ushbu so‘z quyidagicha ta’riflanadi: Muhabbat, sevgi – 1) biror shaxsga yoki kishilar guruhiga, g‘oyaga yoki amaliy faoliyatga nisbatan intim va kuchli tuyg‘u. Nafratning aksi. Shaxs ichki dunyosining eng erkin ifodasi sifatida yuzaga keladi. Muhabbat tuyg‘usining ulug‘vorligi va murakkabligi shundaki, unda biologik va ma’naviy, shaxsiy va ijtimoiy, intim va umumiy holatlar bamisoli bir nuqtaga to‘planadi.

2) Tasavvufda Allohga yetishish “haqiqatga erishish”ning asosiy vositasi. Axmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyor va sh.k. shoirlar she’rlarida insonni bu dunyoga emas, Allohga Muhabbat qo‘yishga chaqiradi. Yassaviy fikricha, kishi butun hayotini Allohga, ilohiy Muhabbatga bag‘ishlashi kerak, hayotning mohiyati Alloh – “haqiqat”ga erishishdir. Allohdan o‘zgaga bo‘lgan Muhabbat solihlar nazarida majoziy Muhabbat sanalgan. Tasavvufona bitilgan g‘azal va she’rlarda majoziy Muhabbat orqali haqiqiy Muhabbat tarannum etiladi<sup>19</sup>.

Muhabbat inson tuyg‘usini ifodalovchi tushunchadir. U shaxsning quvonchini, baxtiyorligini, sevgi to‘la qalbini namoyon etishi bilan bir qatorda, antonimik tarzda insonning qayg‘usini, yor vasliga yetisholmaganligini, aziyatli, g‘am-g‘ussaga botgan holatini ko‘rsatishi mumkin. Demak “muhabbat” konsepti ham salbiy, ham ijobiy ma’no beradi.

*Men dunyoni nima qildim,  
O‘zing yorug‘ jahonim,  
O‘zim xoqon, o‘zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim,  
Yolg‘izim, yagonam deymi,  
Toppingan koshonam deymi,  
O‘zing mening ulug‘lardan*

<sup>18</sup> Болдырев Н.Н. Концепт и значение слова // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. – С. 25-36.

<sup>19</sup> qomus.info/encyclopedia

*Ulug'imsan, Vatanim...*

Shoir Muhammad Yusuf qalamiga mansub ushbu she'r "Vatanim" deb nomlanadi. Unda Vatanga bo'lgan "muhabbat" aks etadi. Bu yerda "Muhabbat" konsept, "Vatan" esa freym. "Vatan" freymi "jahon, taxt, koshona" kabi subfreymilar bilan aks etilgan. "Sulaymon" mifologik ramzi, "yolg'izim, yagonam, topingan, ulug'im" – o'xshatish-personifikatsiyasi slotlarni hosil qiladi. Subyekt – "Men" - shoir, obyekt – "Sen" – "Vatan".

Shunday qilib, kognitiv makon tashqi tomondan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun mo'ljallangan mavhum shakllanishning bir turi va aqliy makon kognitiv makonning tuzilishi bilan bog'liq, ya'ni uning yordamida tasvirlangan<sup>20</sup>. Ya'ni, biz atrof-olamni tushunish, idrok etish va tashkil etish jarayonlarida subyektiv va obyektiv tajribaning uyg'unlashuviga erishamiz.

Sxema xaritalari vaziyatni kontekstda tuzish uchun umumiy sxema, freym yoki model ishlatilganda amalga oshadi va allegoriya va simvolizm uchun tarkibiy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Erkin Vohidovning "So'ngan yulduzlar" she'rida "yulduzlar – ustozlar (shoirilar)" obrazlari metaforik ishlatilganligi guvohi bo'lamiz:

*Koinot qa'ridan million yil yurib,  
Bukun derazamga qo'ngan yulduzlar!  
Ming yillar ilgari taratgan nurin,  
Ming yillar ilgari so'ngan yulduzlar!  
Sizga termilurman, kechalar bedor,  
Ajib xislatigiz o'ylab qolurman.  
Necha asrlarga umri poyidor,  
Buyuk ustozlarim yodga olurman.  
Ular ham siz kabi yongan bir zamon,  
Yonib ado bo'lgan sizlardek, ammo  
Avlodlar yo'lini yoritgan hamon,  
Ular qachonlardir taratgan ziyo.*

Xo'sh, "yulduz" va "shoir" qay tarzda bir ma'no berishini proyeksion xarita orqali aniqlashning qanday imkoni mavjud? Dastlab, birinchi misrada "Yulduz" obrazi berilgan. Ikkinchi misrada shoir yulduzlarga termulib, ularning qaysidir xislatlari shoirning ustozlarini namoyon etishini bayon etgan. Proyeksion xaritalashning asosiy vazifasi, ushbu ikki tafovutli obrazlar bir narsa yoki jismga xosligini ularning ma'lum xususiyatidan anglashdan iborat. "Yulduzlar" va "ustozlar (shoirilar)" o'rtasidagi o'xshashlik she'riy matnda qiyoslab o'tilgan.

Yulduzlar – koinot qa'rida nur taratgan, so'ngan, yonib ado bo'lgan.

Ustozlar (shoirilar) – umri poyidor, yonib ado bo'lgan, avlodlar yo'lini yoritgan, ziyo taratgan.

Demak, atribut yoki proyeksion xaritalashning vazifasi ikki qiyoslanayotgan obyektlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashdan iborat. Ushbu munosabatlar she'rda o'z aksini topgan.

<sup>20</sup> Егорова М.А. «Когнитивное пространство» и его соотношение с понятиями «ментальное пространство», «когнитивная база», «концептосфера», «картина мира» // Вестник ИГЛУ. – 2012. № 3 (20). – С. 65.

Munosabat yoki pragmatik vazifa xaritalash orqali o‘xshashlik yanada mavhum darajada sodir bo‘ladi. Bu obyektlar orasidagi farqlarni va ularning o‘xshashliklarini farqlash qobiliyatiga va shu bilan birga, ular umumiy munosabatlarga ega bo‘lishi mumkinligini anglashga bog‘liq. Qiyoslang:

*Bir kuni daraxtni tark etar yaproq,  
Yalang‘och novdalar titrar asabiy.  
Visol oqibati hijrondir, biroq,  
Faqat biz birgamiz, jonim, abadiy!  
Bir kuni o‘zanin tashlaydi daryo,  
Sahrolar gul bo‘lar, vodiylar sahro.  
Yelkandan ketmaydi xush bo‘ying aslo,  
Faqat biz birgamiz, jonim, abadiy.*

Iqbol Mirzo qalamiga mansub “Faqat biz birgamiz” she‘rining kognitiv xaritasi munosabat yoki pragmatik vazifa xaritalash usulida aniqlanadi. “BIZ – BIRGAMIZ” konsept-freymi munosabati o‘xshash, biroq qismati tafovutli bo‘lgan obrazlar, “biz – daraxt va yaproq”, “biz – daryo va o‘zan”, “biz – yelka va atir” misolida berilgan. “BIZ” freymi mazkur she‘riy parchada “Men (ya‘ni shoir) va sen (sevgilisi, yori)” subfreymalaridan iborat. “Sen” subfreymini “sevgilisi”, “yori” deyishimizga sabab, shoir unga “jonim” deb murojaat etgan. Bu so‘z, metonimik shaklda bizning lingvomadaniyatimizda yorga nisbatan aytiladi. Chunki yorga nisbatan hosil bo‘lgan tuyg‘u – “muhabbat” qalbdagi joy oladi, yurak esa insonning “joni” hisoblanadi.

Hozirgi kunda kognitiv tilshunoslar lisoniy kategoriyalardan hosil bo‘lgan konseptlar tasnifi va pog‘onali munosabatini o‘rnatishning o‘ziga xos tamoyillari bilan qiziqmoqdalar. J. Lakoff kategoriyalar – ideallashtirilgan kognitiv modellar deb ataladigan kognitiv tuzilmalar tomonidan shakllantirilganligini faraz qildi<sup>21</sup>.

Kognitiv tuzilmalarni ifodalash usuli sifatida ramzlashtirishni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda mental tuzilmalar strukturasining barqaror komponentlarini ifodalashda bilimlarni umumlashtiruvchi konseptual modellar ko‘rib chiqiladi.

Dissertasiyaning “**Poetik matnning konseptual maydoni tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida poetik matnda lingvofonetik vositalarning pragmatik xususiyatlari, matn konseptual maydonida predmetli badiiy va prosessual-nisbiy konseptlarning voqelanishi, shuningdek, voqelik va tassurot konseptlarining badiiy matnda faollashuvi ko‘rib chiqilgan.

Poetik konsept turli lisoniy darajalarda: fonologik, leksik, frazeologik, so‘z ifodasi, morfologik, sintaktik, zohiriy va botiniy ifodalanishi mumkin.

Konseptlar to‘plami konseptual maydonni hosil qiladi, ular insonlar ongida turli maxsus aqliy shakllanishlar ko‘rinishida saqlangan umumiy kognitiv tajribasi natijasida namoyon bo‘ladi.

---

<sup>21</sup> Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things. What Categories Reveal about the Mind. – Chicago; London: The University of Chicago Press, 1987. – P. 423.

Subektiv ma'no fonetik, ritmik, morfologik, obrazli-leksik, sintaktik darajalarda kodlanadi. She'ning fonetik darajasi – eng mavhum va taxminiy ma'nolarni kodlash usulidir. Ma'lumki, ko'pgina tadqiqotlarda tovush va ma'no o'rtasidagi munosabat o'rnatilgan<sup>22</sup>, shu sababi, bir xil yoki o'xshash tovushlarni jamlash orqali umumiy hissiy fon kodlanganligini aniqlasa bo'ladi (xursandchilik, tashvish, tinchlik va boshqalar). Tovush ifodasi sinestemiyaga asoslangan. Bu psixofiziologik mexanizm hisoblanib, turli hissiyot modalliklari va emosiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rnatishga imkon beradi. Tovush mustaqil fonetik ma'noga ega, u muayyan tilning fonologik va leksik tizimlari ta'sirida milliy o'ziga xos xususiyatlarni ifodalay oladi. Fonosemantik mexanizmlar alohida tovushlar leksemalar darajasida (xususan, onomatopik va ramziy tovush), butun matn darajasida namoyon bo'ladi.

Poetik matn konseptual maydonining navbatdagi qatlamida badiiy konseptlar xususiyati o'rin olib, unda tasvir mustaqil so'z bilan ifodalanadi. Bu predmet konseptlari deb ataladi.

*Falakka boq – yangi chiqqan oy  
Egilib, so'ng ko'tarar yukni,  
Sekin-sekin ochilar chiroy,  
Oydan o'rgan kamtarinlikni!  
O'n besh kunlik ziyosi uchun  
Moh o'n besh kun qarolik ko'rgan,  
Sinovlarga bardosh berib jim,  
Sabrni ham qamardan o'rgan.*

(X. Hamidov "Oy" she'ridan)

"Oy"ning tubida badiiy olamda kamtarinlik, sabr-bardosh, xokisorlik kabi tasavvurlar mavjud. Ushbu she'rda "oy" (qamar, moh) badiiy konseptning markaziy elementi, ya'ni yadroviiy so'zi hisoblanadi. Lisoniy ifoda shakllari muallif tanlagan tuzilmalar asosida va konseptning obrazli komponentida hosil bo'ladi. Badiiy konseptning obrazli va assosiativ tarkibiy qismlari ham she'riy tasvirni ifodalash uchun bir qator transformasion modellarni o'z ichiga oladi.

Matndagi predmetli konsept lisoniy metafora, metonimiya, ramz va boshqa badiiy ifoda vositalari orqali ifodalanadi.

O'xshatish olamni idrok etish jarayonida o'ta muhim aqliy amal bo'lib, uning voqelanishini biz personifikasiya va reifikasiyada ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, "Personifikasiya – kishiga xos narsa, belgi, harakat kabilarning jonsiz predmetga ko'chirilishidan iborat uslubiy qo'llanish"<sup>23</sup>, boshqacha aytganda, "jonlantirish orqali qiyoslash"<sup>24</sup>. Masalan, imoratlarning qad ko'tarishi, xatning kelishi, shamolning shivirlashi haqida so'z yuritish personifikasiya natijasidir. Uning olamni idrok etishdagi o'rniga baho berishda katta qadam – dastlabki metaforalar

<sup>22</sup> Воронин С.В. Основы фоносемантики. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1982. – 244 с.

<sup>23</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 130.

<sup>24</sup> Mirtojyev M. Lingvistik metaforalar tasnifi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973. №4. – B. 36.

yaralishiga ham asos bo‘lganligini e‘tirof etish lozim<sup>25</sup>. Reifikasiya esa (ing. reification – predmetlashtirish) biror-bir ideal hodisani moddiy mavjudlik sifatida tasavvur etish, mavhum g‘oya va tushunchalarni predmetlashtirishdir<sup>26</sup>. Shirin hid, shirin tashvish, qaynoq xabar, fikr olmoq, g‘oya bermoq kabi mulohazalar inson ongidagi reifikasiya natijasi bo‘lib, ular olamni idrok etishni osonlashtiradi, hissiy idrok etilmagan mohiyatlarni anglash uchun imkoniyat yaratadi<sup>27</sup>. Masalan:

*Muhabbat bu – yalt etgan nigoh,  
Va halovat abas degani.  
Muhabbat bu – o‘zingni sevmog‘,  
Va o‘zgaga havas degani.*

(I. Mirzo “Muhabbat” she‘ridan)

Ushbu she‘rda shaxsga nisbatan muhabbatni yalt etgan nigohga, halovatga, havasga o‘xshatilishida reifikasiya hodisasini kuzatish mumkin. Demak, personifikasiya hamda reifikasiya inson kognitiv faoliyati natijalari, ular uchun asos esa inson tafakkuridagi qiyoslash-o‘xshatish amaliyotidir.

Metaforik va metonimik ko‘chimlar, ramziylashtirish jarayonlari leksik tabiatga ega va asosan konseptlarni konkretlashtirish tamoyiliga asoslanadi, obyektlarning ayrim xususiyatlarini tasvirlaydi:

*Keksalik boshlanib, tanni bemorlik  
Zabtiga oldi-yu, xoru zor qildi.  
Bir zamon yurardim, davlatlik, norlik,  
Ko‘zimga dunyoni endi tor qildi.  
Shogirdlar o‘stirdim joylab jonimga,  
Mahramdek sanadim xonadonimga.  
Oqibat o‘shalar hatto yonimga,  
Kelib o‘tirishdan go‘yo or qildi.*

(A. Oripov “Imon” she‘ridan)

Ushbu she‘riy parchada “tanni zabtiga oldi”, “dunyoni tor qildi”, “joylab jonimga” metaforalari, “xonadonim”, “davlatlik”, “norlik” metonimlari, “mahram” ramzi orqali sog‘ligidan, davlatidan, yaqinlari mehridan judo bo‘lgan obrazni tasvirlashga, “Tashlandiq inson” konseptini konkretlashtirishga ko‘maklashgan.

Metafora – lirik subyekt obrazini, kayfiyatini berish, emosional tonallikni belgilashning tengsiz vositasidir. Buni Robert Bernsning quyidagi she‘ri misolida ko‘rsatish mumkin:

*The tender flower that lifts its head elate;  
Helpless must fall before the blasts of Fate:  
Sunk on the earth defaced its lovely form.  
Unless your shelter ward the impending storm*

(Robert Burns “The Rights of Women”)

<sup>25</sup> Usmanov F.F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. F.f.d. diss... avtoreferat. – Toshkent, 2020. – B. 13.

<sup>26</sup> <https://sociologicheskaya.academic.ru/1005>

<sup>27</sup> Микешина Л.А. Эпистемиологическое оправдание гипостазирования и реификации // Вопросы философии. 2020. [http://vphil.ru/index.php?option=com\\_content&task=view&id=236](http://vphil.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=236)

“The tender flower” – “nozikkina gul” metaforaning yorqin namunasi bo‘lib, u obraz yaratishda xizmat qilgan. “Tender” – “nozik”, “mayin”, “helpless” – “ojiz”, sifatlarining satrlar boshida kelishi ayollik belgisini ko‘rsatmoqda. Kontekst asosida qiz haqida gap ketganini anglashimiz mumkin. “The blasts of Fate” – “taqdir bo‘ronlari” metaforik birikmasi asosida bo‘ron, kuchli shamol yosh qizning taqdiri kabi, gul uchun halokatli, xavfli ekanligi namoyon etmoqda.

Kognitiv lingvistika sohasi vakillarning fikricha, tildagi muntazam metonimiya uning konseptual mohiyatining in‘ikosidir. J. Lakoff va M. Jonson o‘z ishlarida metafora kabi metonimiya ham murakkab kognitiv vosita bo‘lib, uning yordamida inson olamni idrok etadi, degan fikrni ilgari surdilar. Metonimik konseptlar nafaqat tilni, balki tafakkur, munosabat va harakatni shakllantiradi<sup>28</sup>.

J.N. Maslova qayd etishicha, prosessual-nisbiy konsept obyektlarning propozisional munosabatlari, ya‘ni ularning reallik bilan o‘zaro aloqasini yoxud yaqinlik munosabatlarini aks ettirishi asosida shakllanishi bilan farqlanadi. Badiiy konsept nafaqat predmetli mohiyat yordamida shakllanadi, balki ular o‘rtasidagi munosabatlar xarakterini ham belgilaydi. Konseptuallashgan harakat, bu holatda, metaforik ko‘chim asosi vazifasini ham bajaradi<sup>29</sup>. Qiyoslang:

*Quyosh kul bo‘lib oyning vaslida,*

*Zo‘rg‘a ko‘z ochdi bahor faslida*

(X. Hamidov “Aslida”)

Ushbu she‘rda prosessual-nisbiylik bahor faslidagi bulutlarga qoplangan quyoshning chiqishi metaforik ko‘chim asosida tasvirlangan. “Kul bo‘lib”, “zo‘rg‘a ko‘z ochdi” – bulutlar orasidan bir ko‘rinib, bir ko‘rinmaganligi nazarda tutilmoqda.

Prosessual-nisbiy konseptlarni ifodalashda metaforik ko‘chim ko‘pincha metonimik komponent bilan birga keladi. Masalan, KO‘Z konsepti voqelikda va inson ongida KIPRIK, QOVOG‘, QORACHIG‘, KO‘Z NURI konseptlari bilan metonimik munosabatda bo‘ladi. Ushbu fakt poetik konseptlarning quyidagi metaforik tasavvurlarini shakllantirish uchun asosdir:

*Men ham shu el farzandidirman,*

*Ko‘z qorasi, dilbandidirman*

(Yu. Muhammad “Alpomishlar yurti bu diyor”)

*Ko‘zlarimning nuri bo‘ldi*

*Yo‘lga poyandoz, kel*

(E. Vohidov “Bir qadam”)

Voqelik konsepti nafaqat ongimizning aqliy yoki ruhiy manbalari birliklarini, inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot shaklini ifodalashga xizmat qiladi, balki shaxsning matn orqali lisoniy omil – voqelikni idrok etish faoliyatining kognitiv jarayonlarini, ya‘ni ruhiy-ijtimoiy munosabat hamda ijtimoiy muhitning diskursiv xususiyatlarini tavsiflashga imkon beradi. Poetik matnda voqelikli talqin qilishda frazeologik birliklardan keng foydalaniladi. Bu she‘rning ekspressivligini, hissiyotga ta‘sirini kuchaytirishga ko‘maklashadi. Masalan:

<sup>28</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We live by*. – Chicago: The University of Chicago Press, 2003. – Pp. 37.

<sup>29</sup> Маслова Ж.Н. Когнитивная концепция поэтической картины мира. – М.: Флинта, 2012. – 420 с.

*Dalalar uyg'ondi, boychechak undi,  
Zamindan qor ketdi, ko'ngildan g'ubor,  
Yarq etgan toleday quyosh ko'rindi,  
O'lkamda bahordir, o'lkamda bahor.*

(E. Vohidov "O'lkamda bahor")

She'rda bahor faslining boshlanishi daraxtlarning uyg'onishi, boychechak chiqishi, qor ketishi, ko'ngil yorishi, quyosh ko'rinishi kabi voqeliklar bilan tasvirlangan.

Ingliz tili she'riyatidan ham voqelik konseptiga misol:

*Spring, the sweet spring, is the year's pleasant king,  
Then blooms each thing then maids dance in a ring;  
Cold doth not string, the pretty birds do sing -  
Cuckoo, jug-jug, pu-we, to-witta-woo!*

(Thomas Nashe "Song")

Mazkur she'rda "blooms each thing", "maids dance in a ring", "Cold doth not string", "pretty birds do sing" kabi voqeliklar guvohi bo'lishimiz mumkin.

Voqea-hodisalarga asoslangan poetik konsept murakkab ko'pkomponentli tasavvurlar asosida shakllanadi va uning ifodasi bitta leksik birlik yoki jumla bilan cheklanmaydi. Voqelik konsepti ssenariy shakliga ega va vaziyatning umumlashtirilgan tasviri bilan belgilangan voqelik yadrosi bilan ajralib turadi:

*Ey ohu izdoshi, asrlar siri,  
Ey dil mehrobida yangragan oyat,  
Baxt so'zin izlardim ming yildan beri,  
Sening ko'zlarinda topdim nihoyat!*

(X. Hamidov "Nihoyat")

Ushbu she'riy parchada voqelik konsepti KO'Z va BAXT konseptlarining o'zaro ta'siri asosida shakllangan. KO'Z konsepti "ohu", "asr siri", "dil mehrobi" kabi metaforik ko'chimlar yordamida ifodalangan. Voqelik jarayoni muallifning BAXTni izlab KO'Zda topgani bilan tasvirlangan. Ya'ni BAXT bu KO'Z.

Dissertasiyaning "**Poetik matni tarjima tilida qayta yaratish muammolariga konseptual yondashuv**" deb nomlangan to'rtinchi bobida poetik matnlar tarjimasi jarayonida pragmatik mazmunni, muallif idiostilini qayta yaratish, shuningdek, poetik matn tarjimasi jarayonida konseptual maydonni belgilash muammosi o'rganilgan.

She'riy asarlarni nasriy ijoddan farqlab turadigan o'ziga xos xususiyatlari tarjima jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Har qanday she'riy asarni qo'lga olishingiz bilan dastlab ko'zga tashlanadigan narsa uning zohiriy tomoni bo'lib, bu hali mazmun bilan tanishmay turib, nazmni nasrdan farqlash imkonini beradi. Zohiriy tomon – she'riy asarning ma'lum tartibdagi shakli: o'lchovi, bandlanishi, qofiyasidir. Zohiriy fazilatlar she'riy asarning mazmunni ifoda qilish uslubiga (ifoda siriqligi, timsoliy uslubiy vositalarning ishlatilishi, o'ziga xos sintaksis), ya'ni uning

botiniy tomoniga, chuqur tahlillardan keyin yuzaga chiqadigan tomoniga ta'sir qiladi<sup>30</sup>.

L.G. Babenko, Yu.V. Kazarin badiiy matnni konseptual tahlil qilish algoritmini taklif etishadi<sup>31</sup>. Ushbu algoritm bo'yicha Robert Byornsning "A Red, Red Rose" she'rini tahlilga tortamiz.

*O my Love is like a red, red rose  
That's newly sprung in June;  
O my Love is like the melody  
That's sweetly played in tune.  
So fair art thou, my bonnie lass,  
So deep in love am I;  
And I will love thee still, my dear,  
Till a' the seas gang dry.  
Till a' the seas gang dry, my dear,  
And the rocks melt wi' the sun;  
I will love thee still, my dear,  
While the sands o' life shall run.  
And fare thee weel, my only love!  
And fare thee weel awhile!  
And I will come again, my love,  
Though it were ten thousand mile.*

Odatda sarlavha matnning asosiy konseptini ko'rsatib turishi mumkin. Masalan "Do'st", "Ona", "Muhabbat" kabi sarlavhalarda konsept ochiq va aniq ko'rsatiladi. Biroq, ushbu she'rdagi sarlavha o'quvchiga turli xil tasavvurlarni hosil qilishi mumkin. "Red Rose" so'zi ingliz tilidagi manbalarda quyidagi ma'no va mazmunlarni bildiradi:

– o'simlik, ra'nodoshlar oilasiga mansub ko'p yillik yog'ochli gulli o'simlik yoki uning guli;

– muhabbat va ehtiros ramzi. Manbalarda quyidagicha ta'rif beriladi: Long a symbol of love and passion, the ancient Greeks and Romans associated roses with Aphrodite and Venus, goddess of love. Long a symbol of love and passion, the ancient Greeks and Romans associated roses with Aphrodite and Venus, goddess of love. Each color offers a distinct meaning: red, the lover's rose, signifies enduring passion<sup>32</sup>;

– eramizning uchinchi asrida xristianlarda Bibi Maryamning ramzi bo'lgan. In Christianity, the red rose became the symbol of the Virgin Mary dating back to the third century AD. At that time, Saint Ambrose believed the Garden of Eden was full of thornless roses, which gained their thorns after the fall and symbolized Original Sin. Because of this, the Virgin Mary is often referred to as the "rose without thorns."

---

<sup>30</sup> Bakayeva M.K. Ingliz va Amerika adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari (XX asr tarjimachiligi misolida). – T.: Fan, 2015. – B. 78.

<sup>31</sup> Babenko L.G., Kazarin Yu.V. Лингвистический анализ художественного текста. Теория и практика: Учебник; Практикум. – М.: Флинта: Наука, 2006. – 496 с.

<sup>32</sup> <https://www.teleflora.com/meaning-of-flowers/rose>

Further down the line, during the Victorian Era, red roses were commonly used to send messages of love due to romantic gestures and shows of affection being basically banned<sup>33</sup>;

– to‘y guldastasi sifatda qizil atirgul minnatdorchilik va hurmatni bildiradi. When used in a wedding bouquet, red roses are a token of appreciation and true respect. A dark red rose can convey the message that you are ready for commitment and represents passion<sup>34</sup>;

– romantika, sevgi, go‘zallikdan tashqari, jasoratni bildiradi. The red rose symbolizes romance, love, beauty, and courage. A red rosebud signifies beauty and purity. A thornless red rose means love at first sight<sup>35</sup>;

– 15-asrda Britaniyada Tyudor monarxiyasining ramzi bo‘lgan: The red rose has specific historical significance in Britain as it was the symbol of the Tudor monarchy formed during the fifteenth century. Houses Lancaster and York were locked in a bitter rivalry for the throne with the subsequent fighting and civil war called the War of the Roses. This was resolved when Lancastrian Henry Tudor VII defeated then King Richard III at Bosworth Field and married Elizabeth of York, bringing together the two families, creating social stability and merging the symbols of their houses: a red and white rose<sup>36</sup>.

Shuni ta‘kidlash joizki, mazkur she’rda ekspressivlik yuqori darajada ifodalangan. Unda takror, kuchaytirish, o‘xshatish, metafora, bo‘rttirish kabilardan unumli foydalanilgan.

She’ning konseptual maydonini tavsiflashda konseptning atributlari, predikatlari, obrazli uyushmalari aniqlanadi. Atribut yoki proyeksion xaritalashning vazifasi ikki qiyoslanayotgan obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashdan iborat. Mazkur she’rda shoir o‘z sevgilisini tasvirleydi, uni yozda endi ochilgan qip-qizil atirgulga, mayin musiqaga o‘xshatadi:

*O my Love is like a red, red rose  
That’s newly sprung in June;  
O my Love is like the melody  
That’s sweetly played in tune.*

Ushbu satrlar sarlavha mazmunini ko‘rsatib bermoqda, ya’ni qizil atirgul yorning husni-jamolini tasvirlash uchun ishlatilgan. “A Red, Red Rose” – go‘zallik ramzi bo‘lib kelmoqda.

Shoir sevgilisini shunday tasvirleydi: *My Love - a red, red rose, melody, fair art, bonnie lass, dear.* U sevgilisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (thee) murojaat etmoqda. “Men”ing (shoirning) muhabbati shunchalik kuchliki, u uni abadiy, mangu sevishini ta‘kidlaydi:

*And I will love thee still, my dear,  
Till a’ the seas gang dry.  
Till a’ the seas gang dry, my dear,*

<sup>33</sup> <https://thursd.com/articles/the-meaning-of-red-roses>

<sup>34</sup> <https://thursd.com/articles/the-meaning-of-red-roses>

<sup>35</sup> <https://harlowgardens.com/symbolism-and-meaning-of-roses/>

<sup>36</sup> <https://www.trulawn.co.uk/news/rose-is-a-rose-is-a-rose>

*And the rocks melt wi' the sun;  
I will love thee still, my dear,  
While the sands o' life shall run.*

Uning muhabbati – dengizda suv qolmaguncha, quyosh qoyalarni eritguncha, yerda tuproq qolmaguncha.

So‘nggi satrlarda shoir o‘z sevgilisini uni biroz kutishga chorlaydi, manzil qanchalik uzoq bo‘lmasin, u tezda qaytib kelishini aytadi:

*And fare thee weel, my only love!  
And fare thee weel awhile!  
And I will come again, my love,  
Though it were ten thousand mile.*

She‘rning kognitiv xaritasi quyidagicha:

Sevgilisi tasviri – kuchli muhabbat – vaqtinchalik vidolashuv

Tadqiqotchilar poetik matn tarjimasining bir nechta turlarini ajratadilar, lekin har bir yondashuv ma‘lum turdagi kamchiliklarga ega bo‘lib, tarjimon u yoki bu she‘riy elementga e‘tiborni ko‘proq qaratib, qolganlariga ziyon yetkazishi mumkin. Poetik nutq ifoda shaklining o‘ziga xos turi hisoblanib, undagi mazmun, shakl, qofiya, ohang o‘zgacha estetik va emosional ta‘sir o‘tkazishga qodir. U oddiy og‘zaki nutqdan farqli o‘laroq, erkinlikdan yiroq.

Freym nazariyasi doirasida biz pressupozisiya tushunchasiga ham murojaat qilamiz. Presuppozisiya (taxmin) tushunchasi bitta bayonotga o‘xshash jumlar (matnning bir qismi sifatida) mavjudligini anglashdir. Biroq, chuqurroq tahlil bir vaqtning o‘zida bir nechta axborot mavjudligini ko‘rsatadi. Presuppozisiya – bu talqin qilingan jumla doirasida qabul qilingan xabardir. Gapda presuppozisiyalarning mavjudligi adresat tomonidan jumlaning noto‘g‘ri talqin qilishiga sabab bo‘ladigan omillardan biridir. Semantik tahlil yordamida jumladagi presuppozisiyani aniqlash mumkin. Presuppozisiya hodisasi poetik matnda juda ko‘p uchraydi. Masalan,

*What is this life if full of care,  
We have no time to stand and stare.*

(H.W. Davies “Leisure”)

1-pressupozisiya:

*Agar g‘amxo‘rlik bilan to‘la bo‘lsa, bu hayot nima,  
Bizda turishga va qarashga vaqtimiz yo‘q.*

2-pressupozisiya:

*Bu qanday hayot agar tashvishga to‘la bo‘lsa,  
Turib qarashga bizda vaqt yo‘q.*

3-pressupozisiya:

*Tik turib tikilishga vaqtimiz yo‘q,  
Qanday hayot ekanki, g‘amga to‘la,*

Umuman olganda, aslyat matnidagi ushbu baytga o‘ndan ortiq pressupozisiya tarjimasini hosil qilish mumkin. Biroq, mukammal tarjimaning asosiy maqsadi

ma'no va pragmatik ta'sirni saqlashdir. Demak, mukammal poetik tarjima uchun tarjimondan eng muqobil pressupozisiyani tanlash talab qilinadi.

Tarjimon D. Sultanova uni quyidagicha talqin qiladi:

*U qanday hayot bo'lar, gar u tashvishga to'lsa,*

*Unda hech tinim bo'lmas, unda hech bo'sh vaqt bo'lmas.*

Keltirilgan tarjimada ma'no saqlangan, biroq bo'g'inlar sonining ko'payishi va takror ishlatilishi natijasida pragmatik ta'sir kuchaytirilgan. "Life full of care" – "tashqishga to'la hayot" freymi to'g'ri talqin qilingan.

Ma'lum bir kontekstda freymni talqin qilishda xatolarga olib keladigan eng keng tarqalgan holatlar: 1) slotni freym sifatida noto'g'ri idrok etish yoki aksincha; 2) so'zlarni noto'g'ri ravishda freym sifatida qabul; 3) bir nechta pressupozisiyalarning mavjudligi.

Hozirgi kunda tarjima nazariyasi nisbatan rivojlangan bo'lsa-da, unda rasmiyatchilikka eng kam javob beradigan badiiy tarjima masalalari kamroq o'rganilgan. Asosiy qiyinchilik sifatida ko'pchilik tadqiqotchilar badiiy tarjimaning ikki xususiyatini ta'kidlashadi, bu bir tomondan, tarjimaning ikkilamchi, takrorlanadigan tabiati bilan, boshqa tomondan estetik va hissiy ta'sir qobiliyatiga ega bo'lgan matn yaratish zarurati bilan bog'liq.

Tarjimaning umumiy nazariyasi doirasida badiiy matn tarjimasining quyidagi asosiy muammolari hal qilindi:

- 1) matnning asosiy mazmuni tarjimasi;
- 2) tarjima intellektual ijodiy faoliyat, tarjimonning shaxsiyati sifatida;
- 3) tarjima birligini tanlash;
- 4) badiiy asar tarjimasini baholashning asosiy mezonlari;
- 5) aslyat mavzusining mantiqiy tarkibi, uslubi, obrazli jihatlari va etnomadaniy o'ziga xosligini qayta yaratish.

## **XULOSA**

1. Konseptual maydon dinamiklik, ochiqlik va moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, u yangi elementlarning kirib borishi uchun ochiqdir. Konseptual maydonning dinamikasi va ochiqligi uning o'zini o'zi tashkil etish, mavhum fikrlashni rivojlantirish, jamiyatdagi tarixiy o'zgarishlarni birlashtirish va atrof-olam obyektlarining yangi belgilarini kashf etish qobiliyati bilan bog'liq. Konseptual maydonning moslashuvchanligi leksik ma'noning harakatchanligi bilan bog'liq bo'lib, ular turli xil uyushmalarga osongina "javob beradi", ularni aks ettiradi va muloqot jarayoniga kiritadi.

2. Konseptual maydon konseptning dolzarb mazmunini taqdim etish, qiyosiy tahlilini o'tkazish, ularning kesishish nuqtalarini, shuningdek, barcha turdagi ma'nolarni taqdim etish imkonini beradigan leksikografik, psixolingvistik, kommunikativ, qiymat-mazmunli va konnotativ mikromaydonlardan iborat.

3. Konsept mazmunini maydon tuzilishi shaklida aks ettirish badiiy asarlarda maydon sifatida ifodalangan konseptosferani modellashtirish uchun imkoniyat yaratadi, bu konseptning nutqiy ifodasida badiiy matnning ahamiyatini aniqlashga

imkon beradi. Olamning badiiy manzarasi murakkab tarkibli, ko‘p jihatlaridan iborat bo‘lib, ba‘zan lisoniy ifoda bilan tafovutga ega bo‘ladi. Yozuvchining olam manzarasi tasviri xususiyatlari uning asosini qanday majoziy-mantiqiy mental majmualar tashkil etishi va ularning ma‘lum badiiy matnlarda ifodalanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

4. Badiiy konsept muallif tafakkurida uning hayotiy tajribalari, ko‘nikmalari va hissiyotlari asosida shakllanadi. Shu asnod, u badiiy kontekstga joylashtirilib, muallif va o‘quvchi ushbu konseptni tushunishining to‘qnashuvi asosida diskursiv vazifani bajaradi. Bunday o‘zaro ta‘sir natijasida o‘quvchining ushbu konsept idrokida yangi assosiasiyalar hosil bo‘ladi.

5. Konseptlar milliy, individual-muallifiy, badiiy kabi ko‘rinishda shakllanishi qayd etilgan. Badiiy konsept – bu muallif badiiy matni konseptosferasining tarkibiy qismi bo‘lib, muallif tomonidan yaratilgan asarning syujetini shakllantirishda kognitiv-pragmatik ahamiyatga ega bo‘lgan va jamoa ongida aks etgan mental belgi va hodisadir.

6. Hozirgi vaqtda matnni lisoniy tahlil qilishda konseptual tahlil samarali hisoblanadi, chunki u mazmuni aniqroq o‘rganish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Badiiy matnning konseptuallashtirilgan domenini aniqlash usuli uning tarkibiy qismlarini muayyan mavzuni yoki mikro mavzuni yoritib beradigan til birliklarining yig‘indisidan ma‘no jihatdan ajratishga asoslangan.

7. Olamning poetik manzarasida poetik konseptlar ajratiladi. Ular badiiy konseptlar kabi nutqiy tafakkur shakllari bilan aloqada bo‘lib, madaniyatning obrazli hamda mental makoniga yo‘naltirilganligi kuzatiladi, e‘tibor konsept tuzilishining ma‘no yoki semantik bo‘lagiga qaratiladi. Poetik konseptlar, shuningdek, insonning kognitiv, hissiy va estetik jihatdan tajribasi natijasi bo‘lgan tizimni tashkil qiladi. Ikkilamchi tabiati tufayli, ushbu konseptlar she‘riy matnning turli darajalarida ifodalanadi va lisoniy ifodaning turli bosqichlari bilan o‘zaro bog‘liq tuzilishga ega.

8. Poetik konsept lingvofonetik, predmetli badiiy, konseptual, assosiativ, obrazli, ramziy, mifologik, qiymat-baholovchi komponentlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ushbu komponentlar valentlik deb hisoblanadi. Konseptual valentliklar o‘zaro ta‘sirning tabiatiga ta‘sir qiladi, shuning uchun ular konseptning tarkibiy qismlari sifatida ajralib turadi. Voqea-hodisalarga asoslangan poetik konsept murakkab ko‘pkomponentli tasavvurlar asosida shakllanadi va uning ifodasi bitta leksik birlik yoki jumla bilan cheklanmaydi. Voqelik konsepti ssenariy shakliga ega va vaziyatning umumlashtirilgan tasviri bilan belgilangan voqelik yadrosi bilan ajralib turadi.

9. Taassurot konsepti matnda ifodalangan boshqa konseptlarning o‘zaro ta‘siri natijasida paydo bo‘ladi, bu so‘zlardan kelib chiqqan obrazlar, tasvirlar, hissiyotlar, shaxsning tasavvuridan iborat murakkab geshtaltni hosil qiladi. Taassurot konsepti poetik matnni idrok etish natijasida hosil bo‘lgan obrazlar, taassurotlar va ma‘nolar to‘plamini qamrab oladi. Matnda ifodalangan individual konseptlar o‘zlarining illokutiv maqsadlarini ushbu konsept turiga murojaat qilish orqali amalga oshiradilar.

10. Poetik matnlar tarjimasi jarayonida uchraydigan muammolarni shartli ravishda, ikki guruhga ajratish mumkin: ushbu muammolarning birinchi guruhi poetik tafakkurning milliy va individual (muallifga xos) xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi guruhdagilari esa, til tizimi va har bir xalqning an‘analariga asoslangan she‘riy shakllar ta‘sirida yuzaga keladi.

11. Poetik matn tarkibidagi fonik vositalarning pragmatik ta‘sir o‘tkazish xususiyatini inobatga olgan holda tarjima tilida ham aynan ushbu ta‘sirni beruvchi ohangdorlikni qayta yaratish talab etiladi. To‘g‘ri, asliyatdagi barcha xususiyatlarni tarjima tilida saqlab bo‘lmaydi. Biroq poetik matn ifodasida estetik-emosional ta‘sir, avvalo lingvofonetik vositalar orqali berilishini unutmaslik lozim. Tarjima adekvatligi, asosan, matnning pragmatik muqobillashuvi asosida hosil bo‘ladi.

12. Har bir madaniyat she‘riy matnning o‘ziga xos badiiy, poetik bo‘yoqdor so‘zlari mavjud bo‘lib, ularning ishlatilishi natijasida she‘riy matn boshqa formal tizimlardan ajralib turadi. Ayniqsa, ingliz she‘riyatida uslubiy neytral so‘zlarga nisbatan uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar ko‘proq ishlatiladi.

13. Tarjimada muvofiq uslub kalitini topish asarning yozilish uslubi bilan g‘oyasi hamda muallif dunyoqarashi o‘rtasidagi bog‘lanishni to‘g‘ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va obrazlar silsilasiga xos xususiyatlarni to‘g‘ri talqin qila bilishga bog‘liq. Biror asarni tarjima qilishda maqbul uslub kaliti topilmas ekan, tarjima asl nusxaga ekvivalentlik holatida bo‘la olmaydi. Uslubiy moslashtirish tamoyili tarjimaning umumiy konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq.

14. Tarjima jarayonida ikkita konseptual tizim – asliyat matni muallifi va tarjimon o‘zaro munosabatga kirishadi, shuning uchun konseptual tahlildan foydalanish bunday o‘zaro ta‘sir darajasini aniqlashga yoki badiiy asar konseptual maydoni tarjimada qay darajada yetkazilganligini aniqlashga imkon beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**ХАЛИМОВА ФИРУЗА РУСТАМОВНА**

**КОНЦЕПТУАЛЬНОЕ ПОЛЕ ПОЭТИЧЕСКОГО ТЕКСТА И ЕГО  
ВОССОЗДАНИЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И  
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 - Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации на соискание учёной степени доктора  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)

**Бухара – 2024**

Тема диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за номером №B2021.1.DSc/Fil297.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-сайте Бухарского государственного университета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и информационно-образовательного портала «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный консультант:** Сафаров Шахриёр Сафарович  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Бобокалонов Рамазон Раджабович  
доктор филологических наук, профессор

Икромхонова Феруза Икромовна  
доктор филологических наук, профессор

Джумабаева Джамиля Шариповна  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «06» июля 2024 года в 09<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 при Бухарском государственном университете (Адрес: 200118, Узбекистан, г. Бухара, улица М. Икбол, 11. Тел.: (99865) 221-29-14; факс: (99865) 221-27-57; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 465). Адрес: 200118, Узбекистан, г. Бухара, улица М. Икбол, 11. Тел.: (99865) 221-25-87.

Автореферат диссертации разослан «24» июня 2024 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 27/10 » 24 июля 2024 года).



**Д.С. Ураева**  
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор

**З.И. Расулов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор

**Ф.М. Хажиева**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.ф.н., доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике уделяется особое внимание вопросам обоснования языкового выражения национальной, языковой, художественной картины мира, культуры, обычаев, традиций различных национальностей с концептуальной точки зрения. В частности, изучение художественного текста в рамках концептуального поля позволяет исследовать комплексную актуализацию содержания и системы в качестве индивидуального отражения авторского мышления. В ходе изучения художественных произведений, являющихся образцом авторского творчества, в качестве концептуального поля, особую значимость имеет создание представления об их индивидуальных взглядах, национальном менталитете, мышлении, эмоциях, и передача языковой картины мира, культуры, национального менталитета из поколения в поколение.

В настоящее время в мировом языкознании изучение самой сложной системы ментального формирования художественного текста ещё более интенсифицировала исследования в сфере прагматики, когнитологии, философии, психологии и лингвокультурологии. Одним из эффективных способов систематизации и характеристики языковых средств, выражаемых в концептах, является их отображение в виде поля, формируемого в плане содержания, а также изучение мышления, семантического потенциала языковой личности, поскольку лингвисты интересуются языковой актуализацией знаний, их стандартами в человеческом сознании, то есть, способами поиска в памяти слова, полностью соответствующего пониманию действительности, воспринимаемой лицом, и его идеям.

В настоящее время большую значимость имеет преподавание и исследование языка, являющегося средством и двигателем межкультурной коммуникации в ходе реформ, осуществляемых в нашей стране. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев, говоря о значимости формирования совершенной интеллектуально развитой личности в качестве основного духовно-нравственного фактора, отметил: «Сегодня постепенно растёт безжалостная конкуренция в международном масштабе. В таких сложных условиях мы должны вести непрерывную работу по широкому внедрению достижений современной науки и инноваций»<sup>1</sup>. Поскольку такой вопрос сейчас становится решающим фактором повышения благосостояния страны, стабильного развития всех сфер жизни государства и общества, создания светлого будущего нашей Родины. Всё более актуальным становится исследование поэтических текстов, воплощающих в себе узбекские национальные ценности, духовность, культуру, а также изучение проблем их перевода. В число приоритетных задач гуманитарного образования входит подготовка высококвалифицированных переводчиков нового поколения,

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Конституция- прочная основа нашей свободной и благополучной жизни и дальнейшего развития нашей страны. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – С. 24.

осведомлённых о научных достижениях, способных гармонично переводить произведения узбекских авторов на другие языки.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, установленных указами Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана» от 28 января 2022 года, №УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030-года» от 8 октября 2019 года, №УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению статуса и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, постановлениями Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране» от 5 июня 2018 года, №ПП-5117 «О мерах по поднятию деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень» от 19 мая 2021 года и рядом других нормативно-правовых актов.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.** Научные изыскания по вопросам вербализации концепта в рамках художественного текста, типологии ментальных единиц и актуализации концептуального поля велись в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях, в том числе Cambridge University (Великобритания), Mannheim Institut für deutsche Sprache (Германия), Los Angeles Community College, University of Chicago, University of Kentucky (США), Московском государственном лингвистическом университете, Пермском государственном национальном исследовательском университете, Челябинском государственном университете, Российском государственном педагогическом университете имени А.И. Герцена, Белгородском государственном национальном исследовательском университете, Волгоградском государственном педагогическом университете, Тюменском государственном университете, Национальном университете Казахстана, а также Национальном университете Узбекистана, Ташкентском

---

<sup>2</sup> Сведения взяты с веб-сайтов университетов: <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.ids-mannheim.de/>, <https://www.laccd.edu/>, <https://www.uchicago.edu/>, <https://www.uky.edu/>, <https://www.linguanet.ru/>, <https://pstu.ru/>, <https://www.csu.ru/>, <https://www.herzen.spb.ru/>, <https://bsuedu.ru/bsu/>, <https://vspu.ru/>, <http://www.utmn.ru/>, <https://www.vsu.ru/>, <https://www.kaznu.kz/ru/>, <https://nuu.uz/>, <https://tsuos.uz/>, <https://tsuull.uz/>, <https://buxdu.uz/>, <https://uzswlu.uz/>, <https://samdhti.uz/ru/>.

государственном университете востоковедения, Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы, Самаркандском государственном институте иностранных языков.

В мировой лингвистике ведётся ряд исследований по лингвокультурным и когнитивным аспектам художественного концепта, а также по проблемам их передачи в переводе. В том числе, выполнен ряд работ по вопросам когнитивного моделирования и классификации концептуальной сферы художественного текста (Los Angeles Community College, Белгородский государственный национальный исследовательский университет, Воронежский государственный университет, Российский государственный педагогический университет имени А.И. Герцена, Национальный университет Узбекистана, Узбекский государственный университет мировых языков, Самаркандский государственный институт иностранных языков), лингвокультурным аспектам концепта (Волгоградский государственный педагогический университет), роли фразеологических единиц при формировании концептуальной картины мира, а также употребления метафорических концептов в художественном тексте (University of Kentucky, University of Chicago, Тюменский государственный университет, Воронежский государственный университет), понятии концептуального поля в современном языкознании (Пермский государственный национальный исследовательский университет, Московский государственный лингвистический университет), проблемам передачи концептов в переводе (Пермский государственный национальный исследовательский университет, Московский государственный лингвистический университет, Национальный университет Узбекистана).

**Степень изученности проблемы.** Вопросы лингвокультурной, когнитивной, психолингвистической актуализации художественного концепта довольно подробно изучены в мировом языкознании<sup>3</sup>, а также отечественными исследователями<sup>4</sup>. Однако актуализации концепта в качестве

---

